



**1991-yildan  
chiqa boshlagan**

**2023-yil. 4-son**

**ISSN 2010-5584**

# TIL VA ADABIYOT ТА'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН


**Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 129 YILLIGIGA**



**Ushbu sonda**



“Boburnoma”da shimoliy  
Tojikiston toponimlarining  
ifodalanishi

12  
бет



TILSHUNOSLIK  
Hyponymic relationship in  
words in semantics

25  
бет



Ishtixon va Payariq  
tumanlaridagi  
toponegizlarning lingvistik  
xususiyatlari

34  
бет



НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Текст как отражение  
культурных ценностей

64  
бет



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.  
4сон.

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'lqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Qayum BAYMIROV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinsbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Emma TOROSYAN

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@mail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin.  
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.30.04. da topshirildi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharli bosma tabog'i 6.0, «Arial» garniturasini, 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma \_\_\_\_ Adadi 4213 nusxa. Bahosi kelishilgan narxida.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

**L** ANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

##### DOLZARB MAVZU

**Yorqinjon Odilov.** Olamning lisoniy manzarasi va til idioetnikligi ..... 3

##### METODIK TAVSIYA

**Klaraxon Mavlanova.** Ona tili darslarida matn tahririga oid majmuaviy ish turlari ..... 5

##### ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

**Xolida G'ulomova.** Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi ..... 7

**Gulnaz Jarilkasinova.** Kursantlarning axborot-metodik ta'minot bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi ..... 9

##### TAHLIL

**Zilola Rozikova.** Effective methods of teaching English to young children ..... 10

**Mo'minjon Turdibekov.** "Boburnoma"da shimoliy Tojikiston toponommlarining ifodalanishi ..... 12

**Firuza Murodova.** O'zbek hujatchiligi tarixi ..... 14

**Hoshimjon Ahmedov.** Navoiy ijdioda tasavvuf g'oya va timsollari talqini ..... 16

**Elmurod Nasrullahov.** "Saddi Iskandariy" dostoni olim talqinida ..... 18

**Dilnoza Buronova.** Ernest Seton-Tompson hayoti va badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari ..... 20

**Dilshod Nasriddinov, Mirzakhoja Jobborov.** Fantasy and reality in literature ..... 21

##### TILSHUNOSLIK

**Kamola Anorboyeva.** Importance of listening and note-taking in students' language learning process ..... 24

**Nasiba Jumayeva** Hyponymic relationship in words in semantics ..... 25

##### TARJIMASHUNOSLIK

**Saida Sultanova.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarjimonning kasbiy muloqoti malakalarini shakllantirish masalasi ..... 26

##### MULOHAZA

**Muqaddas To'raboyeva.** Ona tili ta'limida nutqiylar kompetensiyaning mazmun va mohiyati ..... 28

##### TADQIQOT

**Saadat Kambarova.** O'quvchilarning obrazli va konceptual tafakkurini rivojlantirishda tizimli yondashuvlar ..... 30

**Otabek Xidirov.** O'zbek tili korpusida so'z birikmalarini sintaktik teglash ..... 32

**Oybek Gadayev.** Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponegizlarning lingvistik xususiyatlari ..... 34

**Shahnozxon Komolova.** Nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalarda zidlikni ifodalovchi tushunchalar

va ularning lingvosotsiomadaniy xususiyatlari ..... 36

**Gulruh Bahodirova.** Sohaviy leksika tadqiqi ..... 38

**Zarina Abdullayeva.** Perifraza klassifikatsiyasi olimlar talqinida ..... 40

##### KICHIK TADQIQOT

**Yorqin Nurmatov.** Xitoy tabobati tibbiy atamalari tarjimasidagi ba'zi muammolar ..... 42

**Aziza Zaripova.** Chet tillarni o'qitishda innovatsion usullar ..... 43

**Durdonha Mahkamova.** O'zbek terminologiyasi taraqqiyotida jadidlarning o'rni ..... 45

**Bayon Doniyorova.** Role of multimedia in Russian lessons in primary schools ..... 47

##### METODIKA. O'PTI

**Zulhukumor Isakjanova, Monika Sharjeva, Tatjana Shorina.** B.Suteev. «Как я ловил рыбку» ..... 49

##### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

**Matliuba Mirhanova.** Понимание спонтанной речи ..... 53

##### ЯЗЫКОЗНАНИЕ

**Aziza Bedilova, Saodat Ismailova, Nilufar Bedilova.** Экономическая терминология – объект

исследований учёных-лингвистов ..... 56

**Al'fina Galimova.** Англоязычная лексика в современной лингвистике ..... 58

##### ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

**Bekkenbaev Raimov, Aйдана Бекмуратова.** Этапы работы с английскими фразеологизмами,

характеризующими эмоциональное состояние «fear» (страх), на практических занятиях в вузе ..... 60

**Zebiniso Murudullaeva.** Современные требования к использованию мультимедийных платформ

в преподавании английского языка ..... 61

##### НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

**Lola Kabulova, Salauat Atajanova.** Проблемы переводческих трансформаций при передаче каракалпакских

реалий на русский язык ..... 63

**Gulyxon Akramova.** Текст как отражение культурных ценностей ..... 64

##### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Ol'ga Shevtsova.** Репрезентация понятийной категории «количество» в современном русском языке ..... 66

**Nargiza Alimova.** Преподавание мировой литературы для филологического направления ..... 69

**Nargiza Madaminova.** Структурные особенности композитов-существительных в творчестве Н.С.Гумилёва

и А.А.Ахматовой ..... 71

**Эльдар Гиздулин.** Атрибуты постапокалиптической пандемийной среды в романе

Эмили Сент-Джон Мандел «Станция Однинадцать» ..... 73

**Шахло Алимарданова.** О соотношении явлений вариативности и языковой дифференциации ..... 76

##### ВНЕАУДИТОРНАЯ РАБОТА

**Leila Tagieva.** Изучаем наследие самородка национальной литературы ..... 78



## YORDAMCHI SO'ZLARNI O'QITISH METODIKASI

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lilda yordamchi so'zlarni o'rgatishda o'quvchilarning mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning nutq jarayonidagi o'rni va vazifasini bilishlari, yordamchi so'zlarning grammatik va uslubiy ma'nolarini farqlashlari, nutq jarayonida ulardan maqsadga muvofiq foydalana olishlari hamda yozilishini o'zlashtirishlariga erishish talab etiladi. Bunda mustaqil ish metodi asosida quyidagi topshiriq va o'quv materialaridan foydalanish samarali ish turlaridan hisoblanadi:

**Topshiriq.** Gaplarni o'qing. Mustaqil so'zlarni aniqlang. Matnda qo'llangan qolgan so'zlarni tushirib o'qing. Bu so'zlar matnda qanday o'r'in tutganini izohlang.

*Og'zaki nutqqagina ega bo'lib, hozirda butunlay yo'qolib ketgan tillarning son-sanog'i yo'q. Ham yozma, ham og'zaki nutq shakliga ega, biroq hozir amalda mavjud bo'lmagan qadimiy tillar ham talaygina. Tilshunoslik fanida bu kabi tillar "o'lik tillar" deb ataladi.*

*Xitoy Xalq Respublikasidek davlatda 1 yarim milliarddan ortiq odam xitoy tilida gaplashgani bilan u butun jahon bo'ylab keng yoyilmagan.*

Topshiriqni bajarish davomida o'quvchilarning yordamchi so'z turkumlarini nima maqsadda o'rganish zarurligi haqidagi fikrlari quyidagicha test topshiriqlari asosida aniqlanadi:

1. Mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning nutq jarayonidagi o'rnnini bilishlari uchun.
2. Yordamchi so'zlarning grammatik va uslubiy ma'nolarini farqlashlari uchun.
3. Yordamchi so'zlardan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olish uchun.
4. Yordamchi so'zlarning yozilishini o'zlashtirishlari uchun.

Yordamchi so'zlarning muhim qismini ko'makchilar tashkil etadi. Tilimizda *bilan, uchun, kabi, sari, say-in, qadar, tomon, sababli, orqali, tufayli, qarab, ko'ra, chog'li, uzra* kabi juda ko'plab so'zlar borki, nutqiy faoliyatda ularning ahamiyati benihoya katta. Ko'makchilarni o'rgatishda esa "Muammoli izlanish", "Qayta xotirlash" va "Taqqoslash" usullaridan foydalanish muhim o'r'in tutadi.

Ko'makchilarning nutqdagi o'rni va vazifasini o'quvchilarning otlarning kelishiklar bilan turlanishiga doir bilimlarini misollar va "Qayta xotirlash" metodi asosida

eslatish, kelishik qo'shimchalarini *orgali, bilan, uchun* so'zlar bilan almashtirib o'qish, yuz bergan o'zgarishni "Izlanish" metodi asosida izohlashga undash ularning ona tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Tahsil quyidagi gaplar yordamida amalga oshiriladi:

*Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,  
Shunda bilursankim, ilm bepoyon. (Firdavsiy)  
Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi. (O.)  
Qishloqqa shahar tutash, ikkov birga hamnafas.  
(G.G'ulom)*

*O'quvchilarga keltirilgan kitoblar kutubxonaga berildi.*

*Toshkentga samolyotda keldi.*

*Maktabga o'qishga boradi.*

Kelishik qo'shimchalarini aniqlashga doir mazkur gaplar tahlilida o'quvchilarni quyidagi kabi savol-topshiriqlar asosida izlanishga yo'naltirish mumkin:

1. Gaplarni o'qing. Kelishik qo'shimchalarini aniqlang. Kelishik qo'shimchalari gapda qanday vazifa bajaryapti?
2. 1-gapda kelishik qo'shimchasi otni qaysi so'z turkumiga bog'lagan?
3. Shu kelishik qo'shimchasini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?
4. Kelishik qo'shimchalarini nima sababdan keltirilgan so'zlar bilan almashtirib qo'llash mumkin?
5. Gaplarning oldingi mazmuni bilan keyingi mazmunida farq bormi?
6. Kelishik qo'shimchalarini har doim ham mazkur so'zlar bilan almashtirish mumkinmi? Masalan: *Bolaga otaning mehnati singgan bo'lsa, so'ng u bolanning xulq-atvorida bilinadi* (Yusuf Xos Hojib).

7. Siz kelishik qo'shimchalari o'rniga qo'yib o'qigan so'zlarining qanday nomlash mumkin?

8. Bu so'zlar qaysi so'z turkumini qaysi so'zlarga bog'ladidi?

Ko'makchilarni kelishiklar bilan almashtirib qo'llash ular o'tasidagi o'xshashlik va farqlarni sharhlashda bosh kelishik, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigidagi ular bilan qo'llanadigan ko'makchilarni ajratishga yordam berish orqali ular orasidagi sinonimlik holat yuzasidan muayyan tasavvur, tushuncha hosil qilinadi.

Quyidagi jadvalga berilgan gapdagagi so'zlarni joylash topshirig'ini bajartirish o'quvchilarning ko'makchilar

## Ilg'or pedagogik texnologiyalar

haqidagi tushunchasini yanada boyitadi. *O'quvchilar yaxshi niyat bilan maktab hovlisiga manzarali daraxtlar ekishi*.

Jadvalga qaysi so'zni joylay olmadingiz?

So'zlar	Leksik ma'nosi	So'rog'i	So'z turkumi

B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova hammullifligida yaratilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida ko'makchilar ravish va ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar bilan taqqoslanib tushuntirilgan va qiyosan o'rganuvchi misollar berilgan. Bu kabi so'z ma'nolarini taqqoslash usulidan ham foydalanish ot va ravishdan ko'makchini farqlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Ko'rindaniki, ko'makchilar haqida ma'lumot berisha so'z turkumlarining ham eslatilishi o'quvchilarning oldingi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yordamchi so'zlarning vazifasi va ma'nosi gap ichidagina aniqlashadi. Shuning uchun yordamchi so'zlar sintaksisga bog'lab o'rgatiladi. Bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni bog'lashga xizmat qiladi. Yuklama ifoda etadigan grammatik ma'nolar ham gap ichida aniqlashadi.

Ko'makchilar ifodalaydigan grammatik ma'nolar birgalik (sen bilan boraman), atalganlik (sen uchun oldim), maqsad (o'qish uchun keldim), sabab (kasalligi uchun kelmad), vosita (qalam bilan yozmoq), payt (bir haftadan buyon), yo'nalish (mabitab tomon), o'xshatish (qush singari), o'rin (partaning yoni), harakatning davomiyligi (kuzdan beri), harakatning nutq so'zlab turgan paytdan oldin yuz bergani (kun botmasdan burun) kabi ma'nolari misollar asosida izohlanadi.

Sof va vazifadosh ko'makchilar (ot, fe'l, ravishlarning ko'makchi vazifasida kelish holatlari) ustida ishlashda qiyosiy misollar va savollardan foydalanish mumkin:

1. *O'quvchilar mabitabga qarab borar edi. – Gaplarini onasiga qarab aytdi.*

2. *Burun odamlar shaharga eshakaravada borganlar. – Eshitmasdan burun javob berishga shoshilma.*

3. Qaysi ko'makchilar kelishikka yaqin turadi?

4. Qaysi ko'makchilar egalik, kelishik qo'shimchalar bilan qo'llanadi?

5. Ko'makchilarning yozilishi haqida qanday ko'nikma shakllantiriladi?

6. Ko'makchilar qaysi turkumdagagi so'zlardan keyin keladi?

Bu haqidagi ma'lumotlar ham misollar asosida tus-huntiriladi.

Ko'makchilar bilan bog'liq holda o'quvchilarda shakllantiriladigan ko'nikmalar takrorlash va mustahkamlash mashqlari asosida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

– berilgan misollardagi ko'makchilarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanini chizmada belgilash;

– berilgan misollardagi ko'makchilarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanini, qanday ma'noni anglatayotganini qavs ichida yozish.

Mustahkamlashda quyidagi mashq turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

– berilgan matndan ko'makchilarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanini chizmada belgilash;

– berilgan misollardagi ko'makchilarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanini, qanday ma'noni anglatayotganini qavs ichida yozish;

– ko'makchilarni topib, qaysi so'z turkumidan kelib chiqqanini aniqlash;

– nuqtalar o'rniغا mos ko'makchilarni qo'yib yozish;

– berilgan ko'makchilar yordamida gap tuzish.

Ularning yozilishini izohlash;

– yod bilgan she'rlaridan ko'makchi qatnashgan misralarni yozish;

– aralash berilgan ko'makchilar asosida sinonim ko'makchilar qatorini tuzish (*sari, tomon, qarab*);

– berilgan matndagi ko'makchilarni sinonimi bilan almashtirib matnni qayta yaratish;

– tarqatma materiallardan foydalanish (Bir kun oldin eksang, o'n kun oldin yig'asan. – Bir kun avval eksang, o'n kun avval yig'asan);

– saylanma diktant asosida ko'makchilar ishtirot etgan tez aytish, maqollarni yozdirish mashqi tashkil etiladi.

Xullas, ona tili darslarida yordamchi so'zlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrash, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma nutq shakllarida to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ko'makchilarning vazifasi va grammatik ma'nosini sharplash hamda o'quvchilar nutqiga kiritishda grammatik o'yinlarning ahamiyati katta.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. A.G'ulomov, M. Qodirov va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshq. Ona tili. 7-sinf darsligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.